


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar – mart oylarida 2223,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 foizga oshdi, shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 46,5 mlrd so'mni (o'tgan yilga nisbatan 108,7 foizni) tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,7 foizni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-mart oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

(mlrd so'm, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri (28,5 foiz), Urgut tumani (19,3 foiz), Pastdarg'om tumani (5,8 foiz), Narpay tumani (5,5 foiz) va Payariq (4,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (foizda)



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 596,6 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-mart oylarida 495.8 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri (1113,9 ming so'm), Samarqand shahri (1194,2 ming so'm) va Urgut tumanida (886,9 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 46533,2 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,1 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


Shahar va tumanlar nomi	Ming. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Samarqand shahri	1194,2	99,1
Kattaqo'rg'on shahri	1113,9	99,9
Bulung'ur tumani	440,5	99,3
Jomboy tumani	324,5	99,8
Ishtixon tumani	427,4	99,3
Kattaqo'rg'on tumani	324,2	98,4
Narpay tumani	597,4	99,5
Nurobod tumani	566,6	99,4
Oqdaryo tumani	344,8	99,0
Payariq tumani	448,0	99,9
Pastdarg'om tumani	380,0	98,9
Paxtachi tumani	207,0	101,0
Samarqand tumani	414,0	100,0
Tayloq tumani	454,0	98,2
Urgut tumani	886,9	99,2
Qo'shrabot tumani	276,8	100,2

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 596,6 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,2 foizni tashkil etdi, shundan Samarqand shahri (1194,2 ming so'm) o'tgan yilga nisbatan 99,1 foizni, Kattaqo'rg'on shahri (1113,9 ming so'm) 99,9 foizni, Jomboy tumani (324,5 ming so'm) 99,8 foizni, Samarqand tumani (414,0 ming so'm) 100,0 foizni, Urgut tumani (886,9 ming so'm) va o'tgan yilga nisbatan 99,2 foizni tashkil etdi.

KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 97,1 foizni va umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining 90,3 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiyl tovar aylanmasining 1391,0 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 62,6 foizni tashkil etdi .



Kichik va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi (616,4 mlrd. so'mni) o'tgan yilga nisbatan 100,0 foizni va umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining 27,7 foizni tashkil etdi.